

**JINOYAT-SUDLOV ISHLARINI YURITISHDA BEPUL YURIDIK
YORDAM**

Komilov Is'hoq Xisimatulla o'g'li
“ONE BEST” advokatlik byurosi advokati
E-mail: xismatullayevich@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada belgilangan tartib-taomillar va shartlarga muvofiq davlat hisobidan to'liq yoki qisman ko'rsatiladigan, jismoniy shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan malakali yuridik yordamning mazmuni yoritib beriladi. Bundan tashqari, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi vositasida kam ta'minlangan shaxs deb e'tirof etilgan shaxs hamda tasodifiy elektron tarzda tanlab olish yo'li bilan jismoniy shaxslarga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatishga advokatlarni jalb etish, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan va davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan maxsus elektron axborot tizimi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: davlat hisobidan yuridik yordam, advokatlar reyestri, “Yuridik yordam” axborot tizimi, davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma, davlat hisobidan yuridik yordam olish to'g'risida ariza berish.

**БЕСПЛАТНАЯ ЮРИДИЧЕСКАЯ ПОМОЩЬ В УГОЛОВНОМ
СУДОПРОИЗВОДСТВЕ**

Комилов Исхок Хисматулла угли
Адвокат адвокатского бюро "ONE BEST"
E-mail: xismatullayevich@gmail.com

Аннотация: в статье раскрывается содержание квалифицированной юридической помощи, направленной на защиту прав,

свобод и законных интересов лиц, оказываемой полностью или частично за счет государства в установленном порядке и на условиях. Кроме того, информационная система «Единый регистр социальной защиты» предусматривает привлечение адвокатов к оказанию юридической помощи за государственный счет гражданам и лицам, признанным малообеспеченными, путем случайного электронного отбора, а также специальную электронную информационную систему, предназначенную для выполнения задач, не связанных с оказанием юридической помощи за государственный счет, предусмотренных законодательством.

Ключевые слова: *юридическая помощь за счет государства, реестр адвокатов, информационная система «Юридическая помощь», договор об оказании юридической помощи за счет государства, заявление о предоставлении юридической помощи за счет государства.*

FREE LEGAL AID IN CRIMINAL CASES

Kamilov Ishoq Khismatulla ugli

Attorney at "ONE BEST" Law Office

E-mail: xismatullayevich@gmail.com

Abstract: *this article describes the content of qualified legal aid, which is provided in full or in part at the expense of the state in accordance with the established procedures and conditions, aimed at protecting the rights, freedoms and legitimate interests of individuals. In addition, it discusses the special electronic information system for attracting lawyers to provide legal aid at the expense of the state to individuals recognized as low-income individuals and individuals randomly selected through the "Unified Register of Social Protection"*

information system, as well as to perform tasks not related to the provision of legal aid at the expense of the state, as provided for by law.

Keywords: *state-funded legal aid, register of lawyers, "Legal Aid" information system, agreement on the provision of state-funded legal aid, application for state-funded legal aid.*

O'zbekiston Respublikasining "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida" 16.06.2023-yildagi O'RQ-848-sonli Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 21.11.2024-yildagi 774-sonli qarori qabul qilingan bo'lib, mazkur normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston hududida jinoyat ishlari yurituvda bepul yuridik yordam olish huquqini kafolatlaydi.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan kam ta'minlangan shaxslarga davlat hisobidan yuridik yordam ma'muriy qamoq tarzidagi jazo nazarda tutilgan huquqbuzarlik sodir etilgan hollarda ko'rsatiladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchilarga davlat hisobidan yuridik yordam O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda ko'rsatiladi [1]. Kam ta'minlangan shaxs bo'lgan mahkumlarga davlat hisobidan yuridik yordam sudning hukmi, ajrimi va qarorlarini qayta ko'rib chiqishda, shuningdek, ularni ijro etish bilan bog'liq masalalarni hal qilishda ko'rsatiladi [2].

Davlat hisobidan yuridik yordam olish uchun jismoniy shaxslar eksteritoriallik prinsipi asosida adliya bo'limiga og'zaki, yozma yoki elektron shaklda murojaat qiladi. Davlat hisobidan yuridik yordam olish haqidagi elektron

shakldagi murojaatlar Yagona identifikatsiya tizimidan (OneID) ro'yxatdan o'tgan holda, "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali yuboriladi. Davlat hisobidan yuridik yordam olish haqidagi og'zaki va yozma murojaatlar tegishli adliya bo'limi tomonidan murojaat kelib tushgan kunning keyingi ish kunidan kechiktirmay "Yuridik yordam" axborot tizimiga kiritiladi.

Agar jismoniy shaxs "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida hisobda turmagan bo'lsa, davlat hisobidan yuridik yordam olish haqidagi ariza yoki so'rov "Yuridik yordam" axborot tizimida ro'yxatga olinmaydi [3].

Biroq quyidagi istisnalar mavjud:

- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 51 va 52-moddalariga muvofiq jinoyat ishi bo'yicha advokat ishtirok etishi shart bo'lsa, himoyachi (advokat) tayinlash to'g'risidagi surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi mavjud bo'lganda;
- ariza yoki so'rov ruhiy holati buzilgan, psixiatriya yordami ko'rsatilayotgan jismoniy shaxsning qonuniy vakili yoki psixiatriya muassasasi tomonidan berilgan taqdirda;
- ariza yoki so'rov o'z huquqlari buzilgan, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi munosabati bilan sudga murojaat qilgan jismoniy shaxs yoki sud tomonidan berilgan taqdirda bepul yuridik yordam ko'rsatish ta'minlanadi va bunda "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot hisobida turganligi talab etilmaydi.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish rad etilgan taqdirda, adliya bo'limi davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida ariza bergan jismoniy shaxsni yoki so'rov yuborgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud

yoxud vakolatli organni (mansabdor shaxsni) rad etish sabablarini ko'rsatgan holda elektron yoki yozma ravishda darhol xabardor qiladi [4].

Moliyalashtirish masalasiga to'xtalsak, advokat tomonidan tasdiqlovchi hujjatlar tegishli adliya bo'limiga "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali yuborilganligi ko'rsatilgan davlat hisobidan yuridik yordamni moliyalashtirish uchun asos bo'ladi. Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatayotgan advokat almashtirilganda yoki davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tugatilganda yoxud qonunchilik hujjatlariga muvofiq ish yuritish to'xtatib turilganda, advokatga amalda ko'rsatilgan davlat hisobidan yuridik yordami uchun haq to'lanadi[5].

Advokatga xizmat ko'rsatganlik uchun barcha xarajatlar davlat hisobidan qoplab beriladi.

Haqning miqdori esa quyidagicha (yuridik yordam ko'rsatilgan har bir kun uchun bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan):

a) tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov jarayonida, sudda ko'rilayotgan ishlarda va psixiatriya yordami ko'rsatilayotganda:

kun davomida–50 foiz;

tungi vaqtlarda–75 foiz;

dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlari–100 foiz.

b) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi tomonidan himoyachidan voz kechish bilan bog'liq protsessual harakatlarda ishtirok etganligi uchun (har bir protsessual harakat uchun alohida hisoblanadi):

kun davomida–30 foiz;

tungi vaqtlarda–45 foiz;

dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlari–70 foiz.

d) Sudga ariza va shikoyatlar kiritganlik uchun:

amalga oshirilgan vaqtdan qat'i nazar–20 foiz.

e) xizmat safari va transport xarajatlari uchun (yuridik yordam ko'rsatilgan har bir kun uchun hisoblanadi):

amalga oshirilgan vaqtdan qat'i nazar–25 foiz.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatuvchi advokat davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatilganligi haqidagi ma'lumotnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi. Tasdiqlovchi hujjatlarning protsessual harakatlarni amalga oshirishdagi ishtirokiga oid qismini kelishgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud yoki boshqa vakolatli organ (mansabdor shaxs) ma'lumotlarning kelishilgan qismiga javobgar hisoblanadi. Iqtisodiyot va moliya vazirligining tuman (shahar) bo'limlari advokatlarga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatilganligi uchun xarajatlarni belgilangan miqdorda va muddatlarda to'lab berishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Уралов С. Некоторые вопросы реализации института преюдиции в уголовно-процессуальном законодательстве Республики Узбекистан //Общество и инновации. – 2024. – Т. 5. – №. 2/S. – С. 62-65.

2. Saidjabbarova D. Yuridik yordam olish – har bir shaxsning konstitutsion huquqi //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 15. – С. 160-163.

3. Akmalovich, A. A. (2024). Gumon Qilinuvchi Va Ayblanuvchini Himoya Huquqi Bilan Ta'minlash. Miasto Przyszłości, 54, 882-885.

4. Maxmasoliyev, Nuriddin. “Jinoyat ishlarida advokat tomonidan huquqiy yordam ko‘rsatilishining umumiy asoslari: huquqiy tahlil, amaliy va xorijiy tajriba.” modern science and research 4.3 (2025): 1446-1452.

5. Yo‘ldoshev, S. (2024). Advokatlik faoliyati kafolatlarining konstitutsiyaviy asoslar. Academic research in educational sciences, (2), 254-259.